

TASDIQ VA INKOR TUSHUNCHASINING KELIB CHIQISH TARIXI

THE HISTORY OF THE ORIGIN OF THE CONCEPT OF AFFIRMATION AND NEGATION

ИСТОРИЯ ПРОИСХОЖДЕНИЯ ПОНЯТИЯ УТВЕРЖДЕНИЯ И ОТРИЦАНИЯ

Abdurashidov Usmonjon

*Andijon mashinasozlik institute O'zbek tili va adabiyoti
kafedrasida stajyor o'qituvchisi,*

Abdurashidov Xilolaxon

Andijon mashinasozlik instituti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqola orqali tasdiq va inkor tushunchasining kelib chiqish tarixi haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lasiz. Ushbu maqolada tilshunoslik fani bilan falsafa, mantiq, psixologiya, etnografiya va adabiyotshunoslik kabi fanlar kesmasida tasdiq va inkor kategoriyasining ifodalanishi haqidagi masalalar atroflicha tahlil qilingan.*

Annotation: *Through this article, you will get information about the history of the origin of the concept of affirmation and negation. In this article, the issues of the representation of the category of affirmation and negation at the intersection of linguistics, philosophy, logic, psychology, ethnography, and literary studies are thoroughly analyzed.*

Аннотация: *Благодаря данной статье вы получите информацию об истории возникновения понятия утверждения и отрицания. В данной статье рассматриваются вопросы репрезентации категории утверждения и отрицания на стыке языкознания, философии, логики, психологии, тщательно анализируются этнография и литературоведение.*

Tayanch so'zlar: *tasdiq, inkor, ichki inkor, lingvistika, tasdiq gap, kategoriya, dialektik, isbotlash, ishonch, til.*

Key words: *affirmation, negation, internal negation, linguistics, affirmative sentence, category, dialectic, proof, belief, language.*

Ключевые слова: *утверждение, отрицание, внутреннее отрицание, языкознание, утвердительное предложение, категория, диалектика, доказательство, убеждение, язык*

Tilshunoslikda tasdiq va inkor kategoriyasi qadimiy tushunchalar qatoriga kiradi, chunki insoniyat yaralibdiki, unga xizmat qilayotgan til vositalari va ular orqali o'z ifodasini topayotgan lingvistik kategoriyalar ham o'sha xalqning tarixi bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. So'nggi yillarda til nazariyotchilari u yoki bu tildagi

mavjud til birliklarining bajarayotgan vazifalariga ko'ra ularning mohiyatini aniqlashni lingvistikaning tarkibiga qo'yishmoqda. Bu, albatta, ma'lum tilning bajarayotgan vazifasi bilan chambarchas bog'liqdir. Agar biz Abu Rayhon Beruniyning: "Til so'zlovchining tilagini tinglovchiga yetkazuvchi tarjimondir",- degan ta'rifidan kelib chiqadigan bo'lsak, zamonaviy tilshunoslikning pragmatik lingvistika deb atalmish sohasiga bizning bobokolonimiz asos solganiga shubha qolmaydi. Darhaqiqat, har bir so'zlovchidan tinglovchiga qarab ketayotgan axborot va har bir so'z ma'lum vaziyatda, ma'lum bir vaqtda va, albatta, makonda sodir bo'lishi barchaga ma'lum. Ammo tildagi tayyor birliklarning ma'lum maqsadlarning ifodasi sifatida ishlata bilish har kimning ham qo'lidan kelavermaydi. Shuning uchun ham muloqot paytida insonlarning bir-birini tushunmasligi ana shu birliklarni to'g'ri ishlata bilmasligida deb qarash mumkin.

Lingvistika masalalari bilan shug'ullanuvchi ko'pchilik olimlarning fikricha, til birliklaridan unumli foydalanish, vaziyatni tanlay bilish, kim bilan kommunikatsiyaga kirishayotganligini e'tiborga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Ana shu nuqtai nazardan kelib chiqib, tasdiq-inkor kategoriyasining mohiyatini aniqlash va, umuman, bu kategoriya muloqot jarayonida nima uchun kerakligini tushunish, masalaning bahstlab tomonlarini yoritish biz izlanuvchilar uchun keng istiqbol ochib beradi. Chunki har yaxshining yomoni, har yomonning lekini, muhabbatning qahri, umuman olganda, har bir narsaning shu kabi fazilatlarini yonma- yon bo'lganidek, tasdiqning ham inkori bo'lishi, shubhasiz, tabiiy bir holdir.

Tasdiq [arabcha-imon, ishonch, mustahkamlash, isbotlash, asoslash] 1. Biror narsaning haqligi, to'g'riligi yoki ma'qulligini tan oluvchi so'z, imo ishora kabilari; ma'qullash to'g'ri debbilish. Akbarov unga tasdiq ma'nosida bosh irg'ab, Mahkamga gapirishda davom etdi.

P.Qodirov, Uch ildiz. Usta Olim tasdiq ishorasini berib;-Sozlay beringiz! – dedi. A. Qodiriy. O'tgan kunlar. Bolalardan tasdiq javobini olgach, po'pisa qildi...S.Karamatov, Oltin qum.

2.To'g'ri, haqiqat ekanlikni qayd etuvchi narsa, fakt; isbot. ..xalq demokratiyasi mamlakatlari bilan do'stlik, hamkorlik mustahkamlanganligi baynalminalchilik g'oyalarining amaliy tasdig'idir.Gazetadan.

3.Ma'qullanganlik haqidagi rasmiy qayd, qaror. Loyihani tasdiqdan o'tkazmoq. –Mana bu –bo'limning butun tasdiqlardan o'tgan tematik plani. S.Karamatov. Oltin qum.

4.Inkorga zid mazmunli. Tasdiq gap- Kesimi inkor shaklda bo'lib, tarkibida qandoq,nima, ozmuncha so'zlari ishtirok etgan gaplar tasdiq fikrni ifodalaydi. "O'TA".

Inkor- tan olmaslik, qabul yoki tasdiq etmaslik; rad.

*Bunda inkorni inkor qilish yangi tarbiyaviy dalillar asosida bo'ladi va u bazan katta davrni talab qiladi. Gazetadan

Inkor gap tilshunoslikda inkor mazmunli gap.Inkor etmoq(yoki qilmoq) Tan olmaslik; rad etmoq.* Kelingiz mendan yaxshilik ko'rmas, demaganmi edim? Siz

bilan otam bunga ko'nmagan edingiz, siz buni inkor qilasizmi? A.Qodiriy. "O'tgan kunlar"[O'zbek tili izohli lug'ati]

Inkor- ketma-ket kelayotgan ikki bosqich (holat) o'rtasidagi bog'liqlik va vorisiylikni ifodalovchi falsfiy tushuncha. Inkor – obyektning o'zgarishi sharti bo'lib, unda ba'zi elementlar shunchaki yo'qolmay, balik yangi sifatda saqlanib qoladi. Keng ma'noda – biror o'zgarish, taraqqiyotni o'z ichiga oluvchimuhim bosqich, lahza(moment)ni ifodalaydi.Olamdagi har qanday o'zgarishda, albatta, inkor lahzasi bo'ladi, uni chetlab o'tish mumkin emas. Masalan , taraqqiyotning istalgan bir bosqichi ikkinchi bosqich uchun zamin tayyorlaydi. Inkor tushunchasi inkorni inkor qonunining eng muhim belgisi, yangi bilan eskini bog'lovchi asosiy bo'g'in hisoblanadi.Inkorni inkor qonuni- dialektning asosiy qonunlaridan biri. Tabiat, jamiyat va tafakkur taraqqiyoti jarayonining yo'nalishini, shaklini va natijasini ifodalaydi. Birinchi bo'lib Gegel rivojlanish qonuni sifatida ta'riflab bergan. Inkor har qanday taraqqiyotda muqarrar va qonuniyatli ravishda sodir bo'ladigan jarayon(moment)dir. Hech bir sohada o'zining ilgarigi mavjudlik shakllarini inkor qilmaydigan taraqqiyot bo'lmaydi. Gegel fikricha, "ichki inkor" taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchidir. Dialektik inkorning obyektiv karakteri shundaki, u har bir narsa va hodisaning o'z ichida, ularning ichki zaruratidan kelib chiqadi va har qanday yemirilish va yo'q bo'lish (inkor)ni ifodalamay, balki taraqqiyot uchun zamin bo'lib xizmat qiladigan inkorni ifodalaydi. Bu qonunning ikki martta takrorlanuvchi inkorda (inkorni inkor) ifodalanishi narsa va hodisalarning doimiy ravishda o'zgarib, bir halatgan ikkinchi holatga o'tishi va oqibatida rivojlanishi uzluksiz ekanligidan kelib chiqadi. Har bir mavjud bo'lgan narsa va hodisa o'zigacha bo'lgannarsa va hodisalarning inkor etilishining mahsuli, ayni paytda shu hodisalarning o'zi ham sharoitning o'zgarishi va vaqtning o'tishi bilan dialektik inkor etilishga mahkumdir. Har bir narsa va hodisaning o'zgarishi qo'shaloq, ya'ni hamisha ikki yoki undan ko'proq inkor etishlar bilan amalga oshadi. Inkorni inkor qonunining yana bir muhim belgisi shuki, taraqqiyotdagi davriylikni tugallovchi halqasida, ikkinchi inkor bosqichida uning oldingi bosqichidagi ba'zi belgilar qayta tiklanadi(don –o'simlikva yana don). Boshlang'ich shaklni inkor qilgan narsa yana inkor etilganligi sababli qo'shaloq inkor mazkur boshlang'ich shakladagi ba'zi tomonlarga xos belgilarning qayta tiklanishiga olib keladi.

Tasdiq va inkor kategoriyasi mohiyatining o'rganilishida dastlab uning logik va falsafiy aspektiga murojaat talab etiladi. Falsafiy nuqtai nazardan tasdiq va inkor o'xshash va farqlilikning bir xodisa sifatida namoyonidir.Bir tarafdandan tasdiq va inkor bir mavjudlikning eng oxirgi chegarasigacha farqliligini ko'rsatsa, boshqa tarafdandan, bir hodisaning ikki tomoni sifatida faqat farqlilikni emas, umumiylikni ham ifoda etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1..Abdurahmonov G'. O'zbek tili grammatikasi (sintaksis). –Toshkent: O'qituvchi, 1996
- 2.Abdullayeva D.T Mazmuniy sub'ekt va uning o'zbek tilida ifodalanishi: filol. Fanlari nomzodi. 2001. – 25 b.
3. Abdullayev A. O'zbek tilida inkor kategoriyasi 1986.N.6 61-65 b.